


## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-oktabr)


Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha joriy yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 4 159,3 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,8 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 543,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 131,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 3 616,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 106,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 241,6 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,2 %) tashkil etdi.

### Shahar va tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2018-yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Nukus shahri, Beruniy, Qonliko'l va Shumanoy tumanlarida qayd etildi.

### Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Nukus shahri (respublika umumiy hajmiga nisbatan ulushi - 31,1 %), Beruniy (9,5 %), Xo'jayli (9,3 %), To'rko'l (9,0 %) va Qo'ng'irot (7,2 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 31,4 % ga o'sdi va 543,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 13,1 % iga to'g'ri keladi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 3 616,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 6,0 % ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 86,9 % ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

2018-yil  
yanvar-oktabr




2019-yil  
yanvar-oktabr



■ Yirik korxonalar  
■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

### Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi, (%)



■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik  
■ Yirik korxonalar

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi bo'yicha Qonliko'l (99,8 %), Qorao'zak (99,6 %), Kegayli (99,4 %), Nukus (99,3 %) va Shumanoy (99,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 13,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Nukus shahrida (31,7 %), Taxiatush (19,6 %) va To'rtko'l (10,8 %) tumanlarida kuzatilgan.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

	Yirik korxonalar (mln. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mln. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>542 997,3</b>	<b>131,4</b>	<b>3 616 305,5</b>	<b>106,0</b>
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	16 293,9	83,0	265 733,2	109,5
Beruniy	9 751,0	87,0	384 335,2	109,6
Qonliko'l	241,6	136,9	106 162,7	108,6
Qorao'zak	595,4	77,1	135 074,9	106,8
Kegayli	537,1	89,8	86 878,1	106,4
Qo'ng'iroq	12 749,7	147,0	286 352,6	106,3
Mo'ynoq	574,7	92,9	28 307,3	106,6
Nukus	503,3	75,8	76 774,0	108,3
Taxiatush	19 593,2	90,5	80 134,9	112,7
Taxtako'pir	1 326,2	165,8	103 628,8	106,1

To'rtko'l	40 438,0	81,1	332 536,3	112,9
Xo'jayli	9 420,3	122,4	378 898,6	107,5
Chimboy	15 285,0	105,3	151 167,2	107,1
Shumanoy	728,5	117,1	87 210,6	108,3
Ellikqal'a	4 646,0	146,1	228 179,0	106,0
Nukus sh.	410 313,2	150,5	884 932,1	99,3

2019-yil yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi respublika bo'yicha aholi jon boshiga 2 212,6 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,2 % ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan respublikamizning barcha tumanlarida o'sish qayd etilib, eng yuqori ko'rsatkichlar Nukus shahri (4 089,8 ming so'm), Xo'jayli (3 190,8 ming so'm) va Taxtako'pir (2 623,9 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Mo'ynoq (916,9 ming so'm), Kegayli (975,6 ming so'm) va Taxiatosh (1 362,4 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich respublika shahar va tumanlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

**Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi**

	Ming so'm	O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>2 212,6</b>	<b>107,2</b>
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	1 434,5	105,4
Beruniy	2 086,2	106,7
Qonliko'l	2 107,0	107,3
Qoroq'ozak	2 584,2	105,8
Kegayli	975,6	105,7
Qo'ng'iroq	2 320,4	106,3
Mo'ynoq	916,9	104,6
Nukus	1 561,2	105,8
Taxiatosh	1 362,4	106,0
Taxtako'pir	2 623,9	106,1
To'rtko'l	1 761,8	106,2
Xo'jayli	3 190,8	106,5
Chimboy	1 441,1	105,9
Shumanoy	1 576,0	107,4
Ellikqal'a	1 481,1	104,4
Nukus shahri	4 089,8	109,7

Jumladan, 2019-yilning yanvar-oktabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 3,2 % ni tashkil etib, 134,0 mlrd. so'mga yetdi yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,7 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 99,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.


## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-oktabr)

Yil boshidan respublika bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 410,4 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018-yilning shu davriga nisbatan 13,9 % ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019-yil yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra 809,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,4 % ni tashkil qildi. Ushbu sektorning umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 57,4 % ni tashkil qilmoqda. Ushbu ko'rsatkichni tumanlar bo'yicha tahlil qilganda, Beruniy, Qorao'zak, Qo'ng'irot, Qonliko'l, Mo'ynoq, Nukus va Ellikqal'a tumanlarida 100 % ni tashkil etgan.

### Yirik korxonalar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 42,6 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Xo'jayli (jamiga nisbatan ulushi – 94,9 %), Nukus shahri (41,7 %) va To'rtko'l (6,7 %) tumanlarida kuzatildi.

### Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mln. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mln. so'm)	O'tgan Yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirdorlik (mln. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>1 410 418,6</b>	<b>113,9</b>	<b>601 236,7</b>	<b>136,6</b>	<b>809 181,9</b>	<b>101,4</b>
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	17 521,3	103,6	738,0	117,3	16 783,3	103,1
Beruniy	64 353,7	100,3	-	-	64 353,7	100,6
Qonliko'l	19 116,8	100,9	-	-	19 116,8	100,9
Qorao'zak	11 703,3	102,0	-	-	11 703,3	102,0
Kegayli	786,1	100,1	0,6	3,6	785,5	102,2
Qo'ng'irot	33 301,4	101,6	-	-	33 301,4	101,7
Mo'ynoq	2 863,2	102,2	-	-	2 863,2	102,2
Nukus	71 070,8	102,0	-	-	71 070,8	102,0
Taxiatosh	20 771,5	100,1	648,5	75,1	20 123,0	101,2
Taxtako'pir	9 137,5	100,5	43,1	125,5	9 094,3	100,4
To'rtko'l	69 933,6	95,5	4 689,6	53,3	65 244,0	101,3
Xo'jayli	321 332,9	162,9	304 870,5	168,3	16 462,4	101,8
Chimboy	20 382,3	95,3	383,8	24,6	19 998,6	100,9
Shumanoy	364,7	99,6	3,5	27,8	361,2	102,2
Ellikqal'a	51 947,8	101,6	-	-	51 947,8	101,6
Nukus sh.	695 831,9	107,4	289 859,1	117,4	405 972,8	101,3

### Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quiyi o'sish sur'atlari Chimboy (95,3 %), To'rtko'l (95,5 %) va Shumanoy (99,6 %) tumanlarida qayd etildi.